

№ 5661

2026 yil «3» «avgust»

“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB**davlat xaridlari jarayonlari va shartnomaviy munosabatlarning
bajarilishi yuzasidan o‘tkazilgan monitoring natijalari bo‘yicha
JAMOATCHILIK UCHUN AXBOROT**

(2026-yil birinchi yarim yilligi — 1-yanvar – 30-iyun)

Umumiy ma’lumot

Ushbu axborot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-sonli “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni 3-ilovasining 16-bandiga asosan, Bank Ichki audit departamenti tomonidan yarim yillik asosda o‘tkazilgan monitoring va tahlil natijalari bo‘yicha jamoatchilik e’tiboriga taqdim etiladi.

Monitoring 2026-yil 1-yanvardan 30-iyungacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan davlat xaridlari jarayonlari va shartnomaviy munosabatlarning bajarilishini qamrab oldi. Tanlov usulida xarid turlari bo‘yicha eng yuqori qiymatli 111 ta xarid o‘rganildi.

Asosiy statistik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Monitoring davri	2026-yil 1-yanvar – 30-iyun	PF-259-son Farmoni ijrosida
Monitoring uchun tanlab olingan xaridlar soni	111 ta	Xarid turlari bo‘yicha eng yuqori qiymatdan tanlab olingan
Davrda amalga oshirilgan umumiy xaridlar soni	1 484 ta	
Davrda amalga oshirilgan umumiy xaridlar summasi	512,3 mlrd so‘m	
Raqobatli usullar ulushi	54,6 %	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar ulushi	45,4 %	
Aniqlangan holatlar soni	16 ta	
Aniqlangan holatlar qamrab olgan	279,5 mlrd so‘m	

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
umumiy summa		
Muddati o'tgan debitorlik qarzdorligi	1,1 mlrd so'm	
Tavsiyalar/chora-tadbirlar soni (umumiy)	2	
Bajarilish jarayonidagi tavsiyalar soni	2	

XULOSA

Monitoring natijalariga ko'ra, Bankda davlat xaridlari jarayonlari hamda shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish bo'yicha asosiy mexanizmlar yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, ayrim jarayonlarni yanada takomillashtirish hamda ichki nazorat samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi qayd etildi. Aniqlangan masalalarni bartaraf etish va belgilangan talablarga muvofiqligini yanada kuchaytirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Keyingi monitoring natijalari navbatdagi yarim yillik yakunlari bo'yicha jamoatchilik e'tiboriga taqdim etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Sizdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring va tahlil natijalari to'g'risidagi qisqacha axborotni amaldagi qonunchilik hamda axborotni oshkor etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq Bankning rasmiy veb-saytining tegishli bo'limiga joylashtirish ishlarini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalarga (*Marketing departament*) tegishli ko'rsatmalar berishingizni so'rayman.

Ichki audit departament
direktorining birinchi
o'rinbosari



A.Tuychiyev